

MAJBURIY SUG'URTA ZAXIRALARINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING AMALDAGI HOLATI

Kodirkulov Oybek Turdiboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-6645-5919

E-mail: oybekrd@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada majburiy sug'urta zaxiralari tavsifi va tasniflanishi tadqiq qilib o'rganilgan. Shuningdek, majburiy sug'urta zaxiralari bo'yicha operatsiyalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish va buxgalteriya o'tkazmalari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, majburiy sug'urta zaxiralarning tarkibi va ular bilan bog'liq operatsiyalarning amaldagi holati hamda ularni takomillashtirish bo'yicha mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan holda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta tashkilotlari, majburiy sug'urta zaxiralari, ishlab topilmagan sug'urta zaxiralari, buxgalteriya hisobi schyotlari, sug'urta shartnomasi.

Аннотация

В данной статье исследованы и изучены характеристика и классификация обязательных страховых резервов. Также разработаны предложения и рекомендации по отражению операций по обязательным страховым резервам на счетах бухгалтерского учета и бухгалтерских проводок. В частности, сформулированы выводы с разработкой авторского подхода к составу резервов обязательного страхования и текущему состоянию операций, связанных с ними, а также их совершенствованию.

Ключевые слова: страховые организации, обязательные страховые резервы, незаработанные страховые резервы, счета бухгалтерского учета, договор страхования.

Abstract

This article examines and studies the characteristics and classification of mandatory insurance reserves. Also, proposals and recommendations have been developed for reflecting operations related to mandatory insurance reserves in accounting accounts and accounting entries. In particular, conclusions were formulated with the development of an author's approach to the composition of mandatory insurance reserves and the current state of operations related to them, as well as their improvement.

Keywords: insurance organizations, mandatory insurance reserves, unearned insurance reserves, accounting accounts, insurance contract.

KIRISH

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida sug'urta zaxiralari muhim ahamiyatga ega bo'lgan buxgalteriya hisobi obyektlaridan biri hisoblanadi. Chunki, ular sug'urtalanuvchilarni huquqlarini himoya qilish, sug'urta shartnomalari bo'yicha keladigan majburiyatlarni o'rnatish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, sug'urta tashkilotlarida sug'urta zaxiralarni buxgalteriya hisobi

obyekti sifatida o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, milliy sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan barcha sug'urta tashkilotlarida sug'urta zaxiralari amaldagi "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizom" [2] da belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq hisoblangan holda buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirib kelinmoqda. Xususan, sug'urta tashkilotlarida sug'urta zaxiralarini majburiy tartibda shakllantirishni talab etilishidan asosiy ko'zlangan maqsadlardan biri bu sug'urtalanuvchilar tomonidan to'langan mablag'larni sug'urta tashkilotida saqlab qolish evaziga, sug'urta shartnomalari bo'yicha kelgusida sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qoplamalarini kafolatlash hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta zaxiralarini buxgalteriya hisobida tan olish, yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini takomillashtirish borasida xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan. Ular asosan, sug'urta zaxiralari va ularning tasniflanishi, zaxiralar miqdorini hisoblash metodlari, ayrim majburiy sug'urta zaxiralarini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha yondashuvlarini keltirib o'tishadi. Jumladan, M.L.Kozlov [8] tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida asosiy e'tibor sug'urta zaxiralarini shakllantirishning biznes yo'nalishlari bo'yicha istiqbolli moliyaviy modellariga qaratilgan. Xususan, iqtisodchi olim aktual amaliyotini tahlil qilish asosida sug'urta zaxiralari miqdorini aniqlash tartibini modellashtirishning 11 ta asosiy usulini ko'rsatgan holda ularni samarali taqsimlash tizimini, yakuniy zarar miqdorini prognozlash natijalarini aniqlash algoritmini, noaniq to'plamli modelning samaradorligini baholash tartibini bayon qiladi.

Jana Glaserova [5] ning tadqiqot ishida esa, majburiy sug'urta zaxiralari tarkibiga kiruvchi ishlab topilmagan mukofot zaxirasini hisobga olish masalalari o'rganilgan. Xususan, muallif tomonidan ishlab topilmagan mukofot zaxirasini buxgalteriya hisobida hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish, zaxira miqdorini hisoblash, baholash va aniqlash metodologiyasi asoslab berilgan. Shu bilan birga, ishlab topilmagan mukofot zaxirasini moliyaviy hisobotda aks ettirish metodi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va Chexiya buxgalteriya hisobi qonunchiligida belgilangan talablar taqqoslangan holda o'rganilgan.

T.V.Zaxarova yozishicha, «Sug'urta tashkilotlarida ko'pincha quyidagi sug'urta zaxiralari shakllantiriladi: Ishlab topilmagan mukofot zaxirasi; Sodir bo'lgan, lekin e'lon qilinmagan zararlar zaxirasi; Da'vo qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi; Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxira; Barqarorlashtirish zaxirasi; Zararlarni qoplash zaxirasi» [7]. Shuningdek, Zaxarova sug'urta tashkilotlari sug'urta zaxiralarini to'g'ri hisoblashlari uchun har bir sug'urta turi bo'yicha "Tuzilgan sug'urta shartnomalarini hisobga olish daftari" va "Zararlarni hisobga olish daftari"ni yuritishlari shartligini ta'kidlaydi.

M.A.Abduraimova [4] sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya balansi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan holda uning tarkibiy tuzilmasini rasm ko'rinishida tasniflaydi. Bunda muallif Moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi 37-

sonli “Sug‘urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘iga 1-ilova sifatida tasdiqlangan buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilmasini keltirib o‘tgan xolos. Xususan, sug‘urta zaxiralari buxgalteriya balansining passiv qismi ikkinchi bo‘limida sug‘urta zaxiralari va qayta sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralaridagi ulushi tasniflangan holda aks ettirilishini ko‘rsatib o‘tadi.


Sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta zaxiralari hisobini takomillashtirish bo‘yicha N.Najimova [6] tomonidan izlanishlar olib borilgan. Ammo, muallif o‘z izlanishlarida sug‘urta zaxiralarning tasniflanishi, zaxiralarni hisoblash metodlari va moliyaviy hisobotda aks ettirish qoidalarini umumiy asoslarda bayon qiladi. Masalan, Najimova sug‘urta zaxiralarni hisobga olish metodologiyasini takomillashtirishni taklif etadi. Buning uchun yangi matematik modellarni ishlab chiqish va qo‘llash lozimligini ta’kidlaydi. Biroq, muallif tomonidan sug‘urta zaxiralarni buxgalteriya hisobida hisobga olishning aniqligini va moliyaviy hisobotda aks ettirilgan axborotlarning ishonchliligini ta’minlaydigan aniq matematik model taklif etilmaydi.

METODOLOGIYA

Sug‘urta zaxiralarning iqtisodiy mohiyati, ularning shakllantirishda o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda tadqiq qilib o‘rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to‘plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo‘yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig‘ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, milliy sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan barcha sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta zaxiralari amaldagi «Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi Nizom» [2] da belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq hisoblagan holda buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirib kelinmoqda. Mazkur Nizomga ko‘ra, sug‘urta zaxiralarni quyidagicha tasniflab ko‘rsatish mumkin (1-rasm).




1-rasm. Sug‘urta zaxiralarni tasniflanishi¹

1-rasmdan ko‘rinadiki, sug‘urta zaxiralari majburiy sug‘urta zaxiralari va qo‘shimcha sug‘urta zaxiralari ko‘rinishida shakllantirish talab etiladi. Xususan, sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta zaxiralarni majburiy tartibda shakllantirishni talab

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

etilishidan asosiy ko‘zlangan maqsadlardan biri bu sug‘urtalanuvchilar tomonidan to‘langan mablag‘larni sug‘urta tashkilotida saqlab qolish evaziga, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelgusida sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta qoplamalarini kafolatlash hisoblanadi. Chunki, agarda sug‘urta tashkilotlaridan majburiy sug‘urta zaxiralarini shakllantirish talab etilmasa, sug‘urtalanuvlardan olingan sug‘urta mukofoti summalari sug‘urta tashkiloti tomonidan daromad sifatida tan olinib, kelgusida aksiyadorlarga dividend sifatida to‘lanib ketishiga olib keladi. Natijada, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelgusida sug‘urta hodisalari yuz berganda, sug‘urtalanuvchilarga sug‘urta qoplamalarini to‘lash bo‘yicha sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy qiyinchiliklar, sug‘urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajara olmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu boisdan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda sug‘urta tashkilotlari tomonidan sug‘urta qoplamalarini o‘z vaqtida va to‘liq (shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda) to‘lashlarini ta‘minlash maqsadida sug‘urta zaxiralarini majburiy ravishda shakllantirish tartibi belgilab quyilgan.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning sug‘urta zaxiralarini tasniflash, tan olish, baholash, buxgalteriya hisobida hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish borasidagi yondashuvlarini e‘tirof etgan holda amaldagi “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi Nizom” [2] ga asosan majburiy sug‘urta zaxiralarini quyidagicha tasniflash mumkin (2-rasm).



2-rasm. Majburiy sug‘urta zaxiralarini tasniflanishi¹

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2-rasmda tasniflab ko'rsatilgan majburiy sug'urta zaxiralari yuqoridagi Nizomda tavsiflab berilgan. Jumladan, «Ishlab topilmagan mukofot zaxirasi – bu sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi bo'yicha hisoblangan, kelgusi hisobot davrlarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, kelgusi to'lovlarni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mo'ljallangan hisobot davrining chegaralaridan chiquvchi shartnomaning amal qilish davriga tegishli sug'urta mukofotining qismi» [2] sifatida ta'riflangan. Muxtasar qilib aytganda, ishlab topilmagan mukofot zaxirasi sug'urtalanuvchilardan olingan sug'urta mukofotlarini sug'urta turi va muddatidan kelib chiqqan holda daromadga olish yoki majburiyat sifatida sug'urta zaxirasi sifatida aks ettirish hisoblanadi.

Mukofotlar zaxirasi – kelgusi davrlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha kelgusidagi to'lovlarni ta'minlashga oid majburiyatlarni bajarish va sug'urta polisining ta'minoti asosida qarz berish uchun mo'ljallangan.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi – sug'urta tashkilotiga sug'urtalanuvchi tomonidan qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urta hodisalari sodir bo'lganligi to'g'risida xabar qilinganda sug'urtalovchiga zarur bo'lgan pul mablag'lari summasini to'lash bo'yicha sug'urta tashkilotining bajarilmagan majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi – hisobot davriga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urta tashkilotiga xabar qilinmagan sug'urta hodisalari bo'yicha majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi – kelgusida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urtalanuvchilarga sug'urta to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligi bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi – kelgusida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligi bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi – kelgusida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta to'lovlarni amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan.

Monografik tadqiqot obyekti bo'lgan «Xalq sug'urta» aksiyadorlik jamiyati (AJ)da majburiy sug'urta zaxiralari va ularning dinamik o'zgarishlari tahlil qilib o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «Xalq sug'urta» AJda majburiy sug'urta zaxiralari summasi 2024-yilda 145659,0 mln. so'mga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 94738,9 mln. so'mni, 2020-yilda esa 55768,1 mln. so'mni tashkil etgan. Demak, 2024-yilda majburiy sug'urta zaxiralari summasi 2020-yilga nisbatan 89890,9 mln. so'mga yoki 261,2 foizga ortgan.

1-jadval

“Xalq sug‘urta” AJda majburiy sug‘urta zaxiralari dinamikasining tahlili¹

(mln. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2024-yilda 2020-yilga nisbatan o‘zgarishi (+; -)
	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	
Jami majburiy sug‘urta zaxiralari	55768,1	67387,9	82152,3	94 738,9	145659,0	+89890,9
shundan:						
Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi	45609,4	54881,5	64430,7	80701,7	125866,3	+80256,90
Sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi	5330,6	5283,4	5439,8	5671,5	11093,8	+5763,20
Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi	3993,2	5958,9	11241,9	4469,2	5252,3	+1259,10
Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi	238,6	424,6	448,3	448,3	-	-238,60
Zararlilikning tebranishi zaxirasi	596,3	839,5	591,6	3448,2	3446,6	+2850,30

O‘z navbatida, majburiy sug‘urta zaxiralari tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi 80256,9 mln. so‘mga yoki 275,9 foizga, sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi 5763,2 mln. so‘mga yoki 208,1 foizga, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi 1259,1 mln. so‘mga yoki 131,5 foizga hamda zararlilikning tebranishi zaxirasi 2850,3 mln. so‘mga yoki 578,0 foizga ortganligini kuzatish mumkin.

«Xalq sug‘urta» AJda majburiy sug‘urta zaxiralari asosiy qismini ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020-yilda 81,8 foizga, 2024-yilda esa 86,4 foizga teng bo‘lgan. Bunday ko‘rsatkichlar «Xalq sug‘urta» AJ xarajatlarining ortishiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa, sug‘urta tashkilotining moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga olib kelgan.

Umuman olganda, sug‘urta zaxiralari o‘zgarishining sug‘urta tashkiloti moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga ta’sirini tahlil qilib o‘rganimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (2-jadval).

2-jadvalda «Xalq sug‘urta» AJ, «Infinity Insurance» AJ va «Aria sug‘urta tashkiloti» AJlarda sug‘urta zaxiralari o‘zgarishining moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga ta’sirining tahlili keltirilgan. Unga ko‘ra, «Xalq sug‘urta» AJning 2022-2024-yillardagi moliyaviy hisoboti (buxgalteriya balansi)da sug‘urta zaxiralari 2024-yilda 2022-yilga nisbatan 63506,7 mln so‘mga yoki 77,3 foizga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Jami aktivlari esa, 2024-yilda 2022-yilga nisbatan 101221,6 mln so‘mga yoki 71,9 foizga ortgan bo‘lib, jami aktivlar oshishining 62,7 foizi ($63506,7 / 101\ 221,6 * 100$) sug‘urta zaxiralari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

“Infinity Insurance” AJda esa, sug‘urta zaxiralari 2024-yilda 2022-yilga nisbatan 49946,1 mln so‘mga yoki 196 foizga, jami aktivlari esa, 79377,5 mln so‘mga yoki 126,7 foizga ortgan bo‘lib, jami aktivlar oshishining 62,9 foizi ($49946,1 / 79377,5 * 100$) sug‘urta zaxiralari tegishli ekanligini ko‘rish mumkin.

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Aria sug‘urta tashkiloti” AJda sug‘urta zaxiralari 2024-yilda 2022-yilga nisbatan 15437,3 mln. so‘mga yoki 101 foizga, jami aktivlari esa, 17657,9 mln. so‘mga yoki 48,5 foizga oshgan bo‘lib, bu jami aktivlar ortishining 87,4 foizi ($15437,3 / 17\ 657,9 * 100$) sug‘urta zaxiralari tegishli ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, sug‘urta zaxiralari iqtisodiy mohiyati bo‘yicha majburiyat ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta zaxiralari summasining har hisobot davri yakuni bo‘yicha ortib borishi, ularning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, sug‘urta tashkiloti moliyaviy holati yomonlashishiga olib keladi.

Endi sug‘urta zaxiralarini hisobga oladigan buxgalteriya schyotlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, amaldagi «Sug‘urtalovchilar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi» [3] ga asosan shakllantirilgan sug‘urta zaxiralarini hisobga olish uchun quyidagi schyotlar mo‘ljallangan:

- 8000 – “Sug‘urta zaxiralarini hisobga oluvchi schyotlar” schyoti;
- 8100– “Sug‘urta zaxiralaridagi qayta sug‘urtalovchilar ulushlarini hisobga oluvchi schyotlar” schyoti (2-jadval).

2-jadval

Sug‘urta zaxiralarini moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga ta’sirining tahlili¹

Ko‘rsatkichlar	O‘rganilgan davrlar			31.12.2024-yilda 31.12.2022-yilga nisbatan o‘zgarishi (+;-)	
	31.12.2022 y.	31.12.2023 y.	31.12.2024 y.	Mutlaq, so‘mda	Nisbiy, foizda
«Xalq sug‘urta» AJ					
Jami aktivlar	140 616,4	158 266,5	241 838,0	101 221,6	71,9
shundan, likvidli aktivlari ulushi	132 098,0	151 474,7	230 201,5	98 103,5	74,3
O‘z mablag‘lari manbalari	59 230,7	59 608,9	89 505,8	30 275,1	51,1
Sug‘urta zaxiralari	82 152,3	94 738,9	145 659,0	63 506,7	77,3
shundan, qayta sug‘urtaning ulushi	1 850,6	1 651,5	813,8	- 1 036,8	56,0
Majburiyatlari	1 084,0	5 570,3	7 487,0	6 403,0	590,7
Olingan sug‘urta mukofotlari	38 624,5	40 972,9	73 011,3	34 386,8	89,0
«Infinity Insurance» AJ					
Jami aktivlar	62 635,0	84 466,9	142 012,5	79 377,5	126,7
shundan, likvidli aktivlari ulushi	59 843,4	74 502,4	74 986,4	15 143,0	25,3
O‘z mablag‘lari manbalari	37 630,3	47 015,0	72 676,0	35 045,7	93,1
Sug‘urta zaxiralari	25 476,6	37 651,1	75 422,7	49 946,1	196,0

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko'rsatkichlar	O'rganilgan davrlar			31.12.2024-yilda 31.12.2022-yilga nisbatan o'zgarishi (+;-)	
	31.12.2022 y.	31.12.2023 y.	31.12.2024 y.	Mutlaq, so'mda	Nisbiy, foizda
shundan, qayta sug'urtaning ulushi	884,0	2 884,6	8 650,5	7 766,5	878,6
Majburiyatlar	412,1	2 685,5	2 564,1	2 152,0	522,3
Olingan sug'urta mukofotlari	15 319,7	33 685,7	83 007,6	67 687,9	441,8
«Aria sug'urta tashkiloti» AJ					
Jami aktivlar	36 404,1	39 587,3	54 062,0	17 657,9	48,5
shundan, likvidli aktivlari ulushi	34 159,8	37 779,4	52 086,4	17 926,6	52,5
O'z mablag'lari manbalari	21 942,6	22 534,7	23 780,0	1 837,4	8,4
Sug'urta zaxiralari	15 235,1	16 298,5	30 672,4	15 437,3	101,3
shundan, qayta sug'urtaning ulushi	1 073,2	719,5	1 065,5	-7,7	0,7
Majburiyatlar	299,6	1 473,6	675,1	375,5	125,3
Olingan sug'urta mukofotlari	18 228,4	5 708,2	2 588,2	14 359,8	78,8

Mazkur schyotlar tarkibida majburiy sug'urta zaxiralari hisobini yuritish uchun mo'ljallangan schyotlar mavjud bo'lib, ularning tasniflanishi va tavsifini quyidagi 3-jadvalda keltirib o'tildi.

O'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, tadqiqot obyekti bo'lgan "Xalq sug'urta" AJ amaliyotida majburiy sug'urta zaxiralari turlari bilan bog'liq sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida mazkur schyotlardan foydalangan holda quyidagicha aks ettirish lozim (3-jadval):

3-jadval

Majburiy sug'urta zaxiralarini hisobga olish uchun mo'ljallangan schyotlar va ularning tavsifi¹

Schyot raqami	Schyot nomi	Schyot turi	Tavsifi
8000	Sug'urta zaxiralari		
8010	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi	P	Ushbu schyotdan barcha sug'urta tashkilotlari foydalanib, sug'urtalanuvchilardan kelib tushgan sug'urta mukofotlari summasidan belgilangan nizom asosida hisoblangan sug'urta zaxiralarini hisobga olishda foydalaniladi.
8020	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi	P	Bu schyotda sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisalari sodir bo'lgan, lekin sug'urta tashkilotiga xabar berilmagan hodisalar bo'yicha sug'urta zaxiralarini hisobga olishda foydalaniladi.
8030	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi	P	Mazkur schyotda shartnoma yoki kelishuv bo'yicha sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida sug'urtalovchiga xabar berilgan, lekin sug'urta tashkiloti tomonidan ushbu hodisani sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yoki

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Schyot raqami	Schyot nomi	Schyot turi	Tavsifi
			hodisasi emasligi bo'yicha qaror qilinmagan holatlarda foydalanadi.
8070	Zararlilikning tebranishi zaxirasi	P	Sug'urta turlari bo'yicha yaratilgan sug'urta zaxiralari ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta to'lovlarini qoplashga yetmasligini oldini olish maqsadida hisoblanadigan sug'urta zaxiralari uchun foydalaniladi.
8090	Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxira	P	Ushbu schyotdan hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi barcha sug'urta tashkilotlari foydalanadi
8100	Qayta sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralaridagi ulushi		
8110	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	KP	Tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta risklarini kamaytirish maqsadida qayta sug'urta tashkilotlariga berilgan sug'urta javobgarliklari bo'yicha hisoblangan sug'urta zaxiralarini hisobga olishda foydalanadi
8120	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	KP	Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida xabar qilinib, ushbu hodisa bo'yicha qayta sug'urta tashkilotidan qoplanishi mumkin bo'lgan summalar bo'yicha zaxiralarni hisobga olishda foydalanadi.
8130	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	KP	Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisalari sodir bo'lgan, lekin sug'urta tashkilotiga xabar berilmagan hodisalar bo'yicha hisoblangan sug'urta zaxiralarida qayta sug'urtalovchining ulushini hisobga olishda foydalaniladi.
8140	Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiradagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	KP	Hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchilar uchun mukofotlar zaxirasidagi risklarni kamaytirish maqsadida qayta sug'urtaga berilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta zaxiralarini hisobga olish uchun foydalaniladi.

1. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi sug'urtalanuvchilardan sug'urta shartnomasi bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofoti summasidan kelib chiqqan holda sug'urta tur (klass) lari asosida hisoblanadi. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi hisobot davri boshiga nisbatan o'zgarishlari bo'yicha buxgalteriya hisobida tegishli buxgalteriya o'tkazmalari berilishi kerak.

“Xalq sug'urta” AJning 2025-yil birinchi chorak moliyaviy hisoboti (buxgalteriya balansi) da ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi davr boshida 125866263,84 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot davri oxirida 118266743,08 ming so'mga teng bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, ushbu zaxira davr oxirida davr boshiga nisbatan 7599520,76 (118266743,08 – 125866263,84) ming so'mga kamaygan. Mazkur o'zgarish summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- Debet 8010 – «Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi» schyoti — 7599520,76 ming so'm;
- Kredit 9230 – «Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o'zgarishining natijasi» schyoti — 7599520,76 ming so'm.

Shuningdek, “Xalq sug'urta” AJ olingan sug'urta javobgarliklari bo'yicha risklarni kamaytirish maqsadida ayrim sug'urta shartnomalarini qayta sug'urtaga bergan bo'lib, xususan hisobot davrida ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi

qayta sugʻurtalovchilarning ulushi hisobot davri boshida 740790,13 ming soʻmga teng boʻlgan boʻlsa, hisobot davri oxirida bu koʻrsatkich 560016,61 ming soʻmni tashkil etgan. Demak, bu koʻrsatkich hisobot davri oxirida davr boshiga nisbatan 180773,52 (560016,61 — 740790,13) ming soʻmga kamaygan. Ushbu kamaygan summa buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

- Debet 9230 – «Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi» schyoti — 180773,52 ming soʻm;

- Kredit 8110 – «Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sugʻurtalovchilarning ulushi» schyoti — 180773,52 ming soʻm.

Yuqoridagi hisob-kitoblarga muvofiq ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi oʻzgarishlar natijasida “Xalq sugʻurta” AJ 7418747,34 (7599520,76 — 180773,52) ming soʻm daromadga ega boʻladi. Bu esa, daromad sifatida buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- Debet 9230 – «Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi» schyoti – 7418747,34 ming soʻm;

- Kredit 9030 – «Sugʻurta xizmatlarini koʻrsatishdan daromadlar» schyoti – 7418747,34 ming soʻm.

Agarda hisob-kitoblarga asosan 9230 – “Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi” schyotining debet oboroti summasi kredit oboroti summasidan koʻp boʻlsa, oʻrtadagi farq summa 9030 – «Sugʻurta xizmatlarini koʻrsatishdan daromadlar» schyoti debetlash orqali hisobga olinadi.

2. “Xalq sugʻurta” AJda hisobot davrida sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi hisobot davri boshida 11093848,0 ming soʻmni tashkil etgan boʻlib, u hisobot davri oxirida 15782655,38 ming soʻmga teng boʻlgan. Yaʼni, ushbu zaxira summasi hisobot davri boshiga nisbatan hisobot davri oxirida 4688807,38 ming soʻmga koʻpaygan. Mazkur summa buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- Debet 9240 – “Sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi” schyoti — 4688807,38 ming soʻm;

- Kredit 8020 – «Sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi» schyoti — 4688807,38 ming soʻm.

Shu bilan birga, “Xalq sugʻurta” AJda sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sugʻurtalovchilarning ulushi hisobot davr boshida 72998,75 ming soʻmni, hisobot davri oxirida esa, 19988,7 ming soʻmni tashkil etgan. Yaʼni, bu koʻrsatkich hisobot davri oxirida hisobot davri boshiga nisbatan 53010,05 ming soʻmga kamaygan. Mazkur oʻzgarish summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

- Debet 9240 – “Sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi” schyoti — 53010,05 ming soʻm;

- Kredit 8130 – “Sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sugʻurtalovchilarning ulushi” schyoti — 53010,05 ming soʻm.

Hisob-kitob natijalariga koʻra, “Xalq sugʻurta” AJda sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi oʻzgarishi 4741817,43 (4688807,38 + 53010,05) ming

soʻmni tashkil etgan boʻlib, bu sugʻurta tashkilotining xarajatlarini ortishiga olib kelgan.

Hisobot davri oxirida ushbu summa 9030 – “Sugʻurta xizmatlarini koʻrsatishdan daromadlar” schyoti bilan bogʻlangan holda buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- Debet 9030 – “Sugʻurta xizmatlarini koʻrsatishdan daromadlar” schyoti — 4741817,43 ming soʻm;

- Kredit 9240 – “Sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi” schyoti — 4741817,43 ming soʻm.

3. “Xalq sugʻurta” AJda xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi hisobot davri boshida 5252285,15 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, bu koʻrsatkich hisobot davri oxirida 19444942,97 ming soʻmga teng boʻlgan. Bundan koʻrinadiki, mazkur zaxira summasi hisobot davri boshiga nisbatan hisobot davri oxirida 14192657,82 ming soʻmga koʻpaygan. Ushbu oʻzgarish summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

- Debet 9250 – “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi” schyoti — 14192657,82 ming soʻm;

- Kredit 8030 – “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi” schyoti — 14192657,82 ming soʻm.

“Xalq sugʻurta” AJda xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasida qayta sugʻurtalovchilarning ulushi esa, hisobot davrida mavjud boʻlmaganligi sababli, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi summasining oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatmagan.

Agarda xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasida qayta sugʻurtalovchilar ulushi mavjud boʻlganda buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirilishi lozim edi:

1). Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasida qayta sugʻurtalovchilar ulushi koʻpayganda:

- Debet 8120 – «Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sugʻurtalovchilarning ulushi» schyoti;

- Kredit 9250 – «Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi» schyoti.

2). Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasida qayta sugʻurtalovchilar ulushi kamayganda:

- Debet 9250 – “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi” schyoti;

- Kredit 8120 – “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sugʻurtalovchilarning ulushi” schyoti.

Demak, “Xalq sugʻurta” AJda hisobot davrida xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sugʻurtalovchilarning ulushi summasi boʻlmaganligi bois, hisobot davri oxirida 9250 – “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi oʻzgarishining natijasi” schyoti debet tomonidagi qoldigʻi, 9030 – “Sugʻurta xizmatlarini koʻrsatishdan daromadlar” schyoti bilan bogʻlangan

holda buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- Debet 9030 – “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar” schyoti — 14192657,82 ming so‘m;
- Kredit 9250 – “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi” schyoti — 14192657,82 ming so‘m.

4. “Xalq sug‘urta” AJda zararlilikning tebranishi zaxirasi hisobot davri boshida 3446633,34 ming so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich hisobot davri oxirida 3570464,17 ming so‘mni tashkil qilgan. Bundan ko‘rinadiki, ushbu zaxira summasi hisobot davri boshiga nisbatan hisobot davri oxirida 123830,83 (3570464,17 — 3446633,34) ming so‘mga ko‘paygan. Mazkur o‘zgarish summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

- Debet 9270 – “Zararlilikning tebranishi zaxirasi o‘zgarishining natijasi” schyoti — 123830,83 ming so‘m;
- Kredit 8070 – “Zararlilikning tebranishi zaxirasi» schyoti — 123830,83 ming so‘m.

Hisobot davri oxirida 9270 – “Zararlilikning tebranishi zaxirasi o‘zgarishining natijasi” schyoti debet tomonidagi qoldig‘i, 9030 – “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar” schyoti bilan bog‘langan holda buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- Debet 9030 – “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar” schyoti — 123830,83 ming so‘m;
- Kredit 9270 – “Zararlilikning tebranishi zaxirasi o‘zgarishining natijasi” schyoti — 123830,83 ming so‘m.

Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, sug‘urta tashkilotida hisobot davri oxirida 9030 – “Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar” schyoti 9910 – “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, majburiy sug‘urta zaxiralari buxgalteriya hisobining amaldagi holati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi. Birinchidan, “Xalq sug‘urta” AJda majburiy sug‘urta zaxiralari tan olish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish jarayoni moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Agar umumiy majburiy sug‘urta zaxiralari hisobot davri oxirida hisobot davri boshiga nisbatan ko‘paygan bo‘lsa, sug‘urta tashkilotining moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotida xarajatlar ko‘rsatkichi ortadi. Agarda umumiy majburiy sug‘urta zaxiralari hisobot davri oxirida hisobot davri boshiga nisbatan kamaygan bo‘lsa, sug‘urta tashkilotining moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotida daromadlar ortadi.

Ikkinchidan, majburiy sug‘urta zaxiralari har bir turi bo‘yicha ishlab topilmagan mukofotlar, xabar qilingan, lekin bartaraf qilinmagan zararlar, sodir bo‘lgan, biroq xabar qilinmagan zararlar va hayot sug‘urtasi bo‘yicha zaxiralardagi qayta sug‘urtalovchilarning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, sug‘urta tashkilotining sug‘urtalanuvchilar oldidagi javobgarligi shunchalik pasayadi.

Uchinchidan, sug'urta tashkiloti o'zida mavjud majburiy sug'urta zaxiralaridan qayta sug'urtaga berilgan qism bo'yicha qayta sug'urtalovchilarning ulushini hisobga olgan holda, buxgalteriya hisobida sug'urta zaxiralaridagi qayta sug'urtalovchilar ulushlarini aks ettiruvchi schyotlar (8100)dan foydalanadi. Natijada, moliyaviy hisobotda sug'urta zaxiralaridan qayta sug'urtaga berilgan qismi ayrilgan holda sof sug'urta zaxirasi shakllanadi. Bu sug'urta zaxirasi sug'urta tashkiloti buxgalteriya balansida majburiyatlardan alohida ajratilgan holda aks ettirilishi lozim.

To'rtinchidan, buxgalteriya balansida majburiyatlar uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarga ajratilgan holda tasniflanadi. Agar sug'urta zaxiralari iqtisodiy mohiyatiga ko'ra majburiyat sifatida qaraladigan bo'lsa, ularni ham uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiy sug'urta zaxiralari ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofiqdir. Chunki sug'urta tashkilotining moliyaviy holatini baholashda majburiyatlarning muddatlarga ko'ra ajratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (17-son MHXS) "Sug'urta shartnomalari". <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-17-insurance-contracts/>
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizom.. <https://lex.uz/docs/1416862>
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 5-maydagi 47-son "Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi" buyrug'i. <https://lex.uz/docs/1357627>
4. Abduraimova M.A. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. Aktual moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2024, 4(02), 217-226 betlar.
5. Glaserova Jana. 2014. Specifics of the Unearned Premium Reserve in the Accounting of Commercial Insurance Companies. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 62(6): 1271–1277.
6. Najimova N. Sug'urta kompaniyalarida sug'urta zaxiralari hisobini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, Oktabr, 2024-yil. № 10-son. 25-28 betlar.
7. Захарова Татьяна Владимировна, Камысовская Светлана Васильевна. Управление резервами страховой организации в учетной бухгалтерской системе // Современные технологии управления. ISSN 2226-9339. — №11 (47). Номер статьи: 4704. Дата публикации: 08.11.2014. Режим доступа: <https://sovman.ru/article/4704/>
8. Козлов М.Л. Формирование страховых резервов: перспективные финансовые модели по линиям бизнеса. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. Санкт-Петербург – 2022. – 22 с.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**